

PEDAGOGIK FAOLIYATDA IMPROVIZATSIYANING KASBIY-IJODIY
KOMPETENSIYA SIFATIDAGI AHAMIYATI

Miraxmedova Dilafruz Nurilloxon qizi

Andijon davlat Pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedra PhD, v.b.dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun o`qituvchisiga qo`yilgan talablar, zarur bo`lgan kompetensiyalar, o`qituvchining tezkor qaror qabul qilish va pedagogik tajriba, mahorati orqali holatni chuqur o`yilgan va maqsadni sifatli amalga oshirishni kafolatlovchi tomonga bura olishi, o`qituvchining pedagogik improvizatsiya qilish qobiliyati o`z oldiga qo`yilgan kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda pedagogik oldindan ko`ra bilish, intuitiv faoliyatning yaxshi rivojlanganligini namoyon etuvchi jarayonlar haqida so`z borgan.

Kalit so`zlar: improvizatsiya, pedagogik jarayon, bilim, ko`nikma, malaka, mahorat, kompetensiya, talab, ta`lim-tarbiya, faoliyat, mutaxassis.

YUNESKO tomonidan taqdim etilgan ta`rifga ko`ra, sifatli ta`lim tegishli infratuzilma, jihozlar, zarur o`quv qurollari, resurslar, moliyaviy ko`mak va malakali o`qituvchilar mavjudligini ifodalaydi. Bunga qo`shimcha tarzda, sifatli ta`lim quyidagi omillarni qamrab olishi kerak:

Birinchidan, shaxslarni yaxlit rivojlantirishdan tashqari, ularni mustaqil fikrlash qobiliyati hamda global dunyoga moslashish uchun zarur bo`lgan ko`nikmalar bilan ta`minlashi lozim. Boisi sifatli ta`limning muhim jihatlaridan biri — bu tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko`nikmalarini rivojlantirish qobiliyatidir. Faqatgina yodlashga e`tibor qaratish o`rniga mustahkam ta`lim tizimi talabalarni savol berish, tahlil qilish va bilimlarni real vaziyatlarda qo`llashga undashi kerak. Bu odamlarga zamonaviy hayotning murakkab vaziyatlarida to`g`ri harakatlanish va jamiyat rivojiga munosib hissa qo`shish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, sifatli ta`lim iste`molchilarning talabiga asoslangan holda, inklyuziv, hamyonbop va talabalarining turli ehtiyojlariga moslashtirilgan bo`lishi kerak. Qolaversa, sifatli ta`lim adolatli bo`lishi, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqishi, jinsi va millatidan qat`i nazar, barcha shaxslarning bu imkoniyatdan teng foydalanishini ta`minlashi lozim. Bu esa, o`z navbatida, resurslar, infratuzilma va o`qituvchilar sifatidagi farqlarni yo`qotish orqali amalga oshadi. Ya`ni, har kim o`z salohiyatiga to`liq erishish imkoniyatiga ega bo`lgan muhit yuzaga keladi.

Uchinchidan, har tomonlama rivojlangan sifatli ta`lim akademik mukammallikdan tashqari, ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirishiga ko`maklashishi lozimligini ham ta`kidlash kerak. Ya`ni, sifatli ta`lim talabalarining ommaviy nutqi va shaxslararo muloqot qobiliyatini rivojlantirishga ko`maklashishi lozim. Qolaversa, talabalararo mustahkam global tarmoq (global networking)ni rivojlantirishni birinchi o`ringa qo`yishi kerak. Global tarmoqqa bo`lgan e`tibor juda muhim, chunki u nafaqat talabalarining madaniy ongini oshiradi, balki ularga turli istiqbollarga ega bo`lish, bilim almashish va xalqaro miqyosda qimmatli professional munosabatlarni o`rnatish imkoniyatlarini beradi.

To`rtinchidan, sifatli ta`lim faqatgina nazariya bilan chegaralanib qolmay, talabalarni o`rgangan bilimlarini amalda qo`llashga undashi lozim. Mustahkam nazariy bilimlar muhim ahamiyatga ega bo`lsa-da, ta`limning haqiqiy samaradorligi amaliyotda ko`rinadi. Bu orqali talabalar o`rgangan bilimlarini chuqurlashtiribgina qolmay, balki tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi muhim ko`nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Zamonaviy ta`limning rivojlanish tendensiyalari, shaxsga yo`naltirilgan kasbiy talablar pedagogning ijodiy shaxsiyatini shakllantirishga, uning ijodiy salohiyatini amalga oshirishga va

faoliyatining individual uslubini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Pedagog, ijodiy shaxs sifatida, nafaqat pedagogik mahoratni egallashi, balki pedagogik intuitsiya va pedagogik improvizatsiya qobiliyatini ham rivojlantirishi zarur. Ushbu ehtiyoj pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi va pedagogik jarayon shart-sharoitlaridan kelib chiqadi. Improvizatsiya muammosi har doim dolzarb bo'lib, o'qituvchi "subyekt-subyekt" tizimida faoliyat yuritadi, bunda o'zaro ta'sirning variantlilik, javob reaksiyalarining kutilmaganligi va bu holat vaqtning cheklangan sharoitida vaziyatni darhol tahlil qilish hamda qaror qabul qilishni talab qiladi. O'quv-tarbiya jarayonida rejalashtirilmagan holatlar juda ko'p yuz berib, ko'pincha o'qituvchini dars rejasidagi ayrim jihatlarni tuzatish bilan cheklanib qolmay, balki uni butunlay o'zgartirishga majbur qiladi. Faqatgina qarorlarni tez va samarali qabul qilish, ularning o'quv-tarbiyaviy vaziyatga moslashtirish, o'qituvchining sifatli, mahoratli amalga oshirishi darsni kerakli yo'nalishga yo'naltirish va belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlashi mumkin.

Shundan kelib chiqib, sifatli ta'limni tashkil etuvchi sifatida bo'lajak o'qituvchilarni har tomonlama yetuk, yuksak kasbiy malakalarni egallangan, pedagogik faoliyatning har bir bosqichida to'g'ri xatti-harakatlarni tanlab olish ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyat kutilmagan vaziyatlar, holatlar va munosabatlarga boy bo'lganligi bilan boshqa kasblardan ajralib turadi. O'qituvchi insonlar bilan doimiy muloqot qilganligi, hamkorlik ishlarida faol bo'lganligi, o'qituvchilar jamoasi bilan ishlaganligi uchun bunday kutilmagan vaziyatlarga ko'p duch keladi. Shunday vaziyatlarda o'qituvchining improvizatsion qobiliyati alohida ahamiyatga egaligi ko'rinadi.

"Improvizatsiya" so'zi (lot. *improvisus*) "kutilmagan, oldindan ko'rilmagan, birdaniga sodir bo'ladigan" degan ma'noni anglatadi. Improvizatsiya asosan ijodiy faoliyat, ayniqsa musiqiy faoliyat doirasida ko'rib chiqiladi, biroq pedagog ham undan hech qanday jihatdan kam foydalanmaydi. Improvizatsiyani ijod doirasidan tashqarida o'rganish deyarli imkonsiz, chunki u bir vaqtning o'zida ham ijodning turi, ham uning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Pedagogning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning izlanishlarida uchraydi (Y.P. Azarov, D.B. Bogojavlenskaya, K.N. Ventsel, L.S. Vigotskiy, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.D. Nikandrov, M.N. Skatkin, V.A. Slastenin va boshqalar) 64. 51-b . Ba'zi izlanishlar inson faoliyatining o'ziga xos akti sifatida ijod muammosining tushunchaviy-terminologik apparatini ishlab chiqish, uning xususiyatlari va mexanizmini o'rganishga bag'ishlangan (T.S. Altshuller, D.B. Bogojavlenskaya, S.L. Rubinshteyn va boshqalar). Boshqa tadqiqotlar ijodiy faoliyat sub'yekti sifatida shaxsni o'rganish va ijodiy individuallikni shakllanti-rishga qaratilgan (Y.P. Azarov, V.I. Zagvyanskiy, V.A. Kan-Kalik, N.D. Nikandrov va boshqalar) 95. 94-b .

Shuni ta'kidlash lozimki, ko'plab tadqiqotchilar o'qituvchining ijodiy faoliyatida improvizatsiyaning ahamiyatini tan olishiga qaramay, o'z asarlarida "pedagogik improvizatsiya" terminidan qochishgan. Chunki improvizatsiya – bu andoza va standartlardan chetga chiqishni anglatadi.

Improvizatsiyaning zarurligi haqida pedagog A.S. Makarenko so'zlagan. U shunday deydi: "Pedagogika – avvalo dialektik soha bo'lib, unda pedagogik chora-tadbirlar va tizimlar bo'yicha hech qanday mutlaq qoidalar o'rnatilishi mumkin emas. Har qanday dogmatik nuqtai nazar, vaziyat va o'sha lahzaning, o'sha bosqichning talablariga javob bermasa, doimo yomon oqibatlariga olib keladi" 60. 42-b .

V.A. Kan-Kalik dars davomida pedagogik improvizatsiyaning manbasiga qarab beshta turini ajratib ko'rsatadi 64. 51-b :

1. Bilvosita kelib chiqqan improvizatsiya. Bu turda amaliy tafakkur va hissiy barqarorlik muhim rol o'ynaydi.

2. Ichki improvizatsiya. Bu pedagogning individual-ijodiy xususiyatlariga bog'liq.

3. Materialning mantiqiy mazmuniga asoslangan improvizatsiya. Bu faol pedagogik tafakkur ishtiroki orqali amalga oshiriladi.

4. O'z-o'zini tahlil qilish va sinfni idrok etish asosidagi improvizatsiya.

5. Pedagogik ijodkorlikka asoslangan improvizatsiya. Bu pedagogik "ilhomlanish" natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik improvizatsiya o'qituvchi faoliyatini samarali tashkil etish vositasi, o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etuvchi usul sifatida qo'llanilishi mumkin. Barcha pedagogik vazifalarni improvizatsiya yordamida bajarib bo'lmasada, biroq ba'zi bir vazifalarni amalga oshirishda improvizatsiya muhim ahamiyatga ega 87. 240-b .

Pedagogik improvizatsiyaning asosiy mazmuni kreativlik, ya'ni yaratuvchanlik bo'lib, yaratuvchanlik pedagogik improvizatsiyaning asosiy komponenti sifatida kelib chiqadi. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik improvizatsiyasini rivojlantirishda ularning yaratuvchanlik mustaqilligini rivojlantirishdagi asosiy funksional xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz lozim:

1.

ntegrativ-ijodiy funksiya – improvizatsiya ijodiy jarayonning barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan birinchi yaratuvchanlikdir, bunda o'qituvchi hozirgi daqiqada "standart bo'lmagan usullar yoki ma'lum bo'lgan usullarning yangi kombinatsiyalari" ni namoyon etadi.

2.

ashkiliy-to'ldiruvchi funksiya – bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatda pedagogik improvizatsiyadan foydalanishga o'rgatishda, pedagogik vaziyatlarning ko'p qirraliligiga e'tibor qaratishlari muhimdir. Bunday vaziyatlarda improvizatsiya bilimlarni aktuallashtirish, jarayon sub'yektlarini yaratuvchanlikka birgalikda jalb etishda imkoniyat yaratadi. Shu jihatdan, pedagogik improvizatsiyaning funksional xususiyati talabalarni o'zini ifodalay olishga tashkiliy-operativ yo'nalishda harakatlantirishda namoyon bo'ladi.

3.

aratuvchan mustaqil faoliyatni faollashtirish funksiyasi – pedagogik improvizatsiya yaratuvchanlik orqali namoyon bo'ladi, bunda muhim belgilar sifatida yaratuvchan faoliyatga bo'lgan ehtiyoj, yaratuvchan ishga tayyorlik, mavzu bilan bevosita bog'liq yaratuvchan g'oyalar paydo bo'lishi, yaratuvchanlikning intellektual boyitishga intiluvchi xarakteri kuzatiladi.

4.

efleksiv funksiya – sifatli pedagogik improvizatsiya uchun o'z-o'zini tahlil qiluvchi pedagogik refleksiya muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'zining improvizatsion qobiliyatlarini, ma'lum improvizatsiya turini tanlash, uning maqbulligi va samaradorligini aniqlashda namoyon bo'ladi. Shuningdek, pedagogik refleksiya yaratuvchanlik yondashuvining asosi ekanligi va izlanishlar, improvizatsiyalar, individual yutuqlarni aniqlash va ifodalash yoki faoliyatni to'g'rilash zaruratining muhim qo'shimchasi sifatida ta'kidlanadi. Shu tarzda refleksiya pedagogik yaratuvchanlikning manbai va asosi bo'lib, uning yo'qligida pedagogik improvizatsiya yuzaga kelmaydi, refleksiya butun improvizatsion-yaratuvchanlik jarayonni o'z ichiga olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi pedagogik improvizatsiya muhitida refleksiya jarayonlarini qanchalik anglab, ularni boshqara olishi, uning o'zini kasbiy pedagogik faoliyat yo'lida ko'ra olishiga, o'z holati va faoliyat chegaralarini oldindan ko'ra olishiga imkon yaratadi.

5.

ntegrativ-evristik funksiya – improvizatsiyani o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni faoliyatga jalb qiladi, bu asosida tajriba, bilim, noaniq his-tuyg'ular,

tasavvur, mantiq va xotira integratsiyasi yuz beradi, evristik komponent yaratuvchanlik sohasi, yaratuvchan intuitsiya va mustaqil yaratuvchanlik o'zini ifoda etishni namoyon qilish imkonini beradi.

6.

pedagogik yordam funksiyasi – bu funksiya g'oyaning kutilmagan intuitsion aniqlanishi va uni amalga oshirish yo'lini tanlash asosida yuzaga keladigan ilhom, intuitsiya va mantiqiy birlik orqali amalga oshiriladi. Pedagogik yordam jarayoni ushbu funksiya doirasida tasavvur va intuitsiyaning rivojlanishi, yaratuvchan ilhom va yaratuvchan o'zini his qilish holatining talab qilinishi, muloqot qilish qobiliyatining shakllanishi, yaratuvchan qayta shakllanish va jamoatchilik oldida o'zini namoyon etish qobiliyatining shakllanishi, shuningdek, “ekspert rejimidan rejalashtirilgan holatga o'tish” qobiliyatining rivojlanishiga qaratilgan.

Pedagogik intuitsiya – o'qituvchining pedagogik qarorlarni tez qabul qilishi bo'lib, bu jarayon ongli tahlil qilish, pedagogik vazifalarni umumlashtirish va vaziyat rivojlanishini oldindan ko'ra bilishga asoslanadi. U intellektning yuqori rivojlanish darajasi, yaratuvchanlik qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, bilim va tajribaga bo'lgan ehtiyoj asosida mustahkamlanadi. Pedagogik intuitsiyaning mavjudligi o'qituvchining pedagogik improvisatsiyani mahoratli tashkil etishini ta'minlaydi.

S.A. Gilmanov pedagogik intuitsiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu – bevosita, ong osti, tezkorlik, oldindan ko'zlanmagan pedagogik vazifalarni hal etishda namoyon bo'ladigan xususiyat bo'lib, u pedagogik ob'yektlar o'rtasidagi bog'lanishlar va munosabatlarning obrazli-emotsional aks ettirilishi, ularning pedagogik maqsad bilan muvofiqligi bilan ifodalanadi. Bu ijtimoiy-madaniy, psixologik-pedagogik asoslar va neyrofiziologik mexanizmlarga ega" 56. 26-b .

Ushbu ta'rifga ko'ra, intuitsiya pedagogik jarayon mazmuniga zid kelmaydi, aksincha u pedagogik fikrlashning subyektiv mazmuniga qarshi turuvchi yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun o'qituvchilarda pedagogik intuitsiya darajasini oshirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

O'qituvchi faoliyatida pedagogik intuitsiya quyidagi funksiyalarni bajaradi 53. 64-b :

a) Kompensatsion – intuitsiya bilim va tajriba yetishmovchiligi, ma'lumotlarning to'liq emasligini to'ldirishga yordam beradi;

b) Tartibga soluvchi – intuitsiya pedagogik vazifalarni to'g'ri yo'nalishda hal etishga yordam beradi;

c) Yo'naltiruvchi – intuitsiya asosiy pedagogik maqsadni amalga oshirishda xizmat qiladi: belgilangan tendensiyalarni oldindan ko'rish, ma'lum harakatlarning oqibatlarini prognoz qilish va ularni tartibga solishda yordam beradi;

d) Optimallashtiruvchi – intuitsiya dars loyhasini ishlab chiqish va tashkil etishda vaqt va kuchni tejashga yordam beradi;

e) Integrativ – tajriba, bilim, noaniq his-tuyg'ular, tasavvur, mantiq va xotiraning integratsiyasini ta'minlaydi;

f) Evristik – intuitsiya yaratuvchanlik bosqichi va usulidir, yaratuvchan intuitsiya esa intuitsiyaning eng yuqori darajasi hisoblanadi.

S.A. Gilmanov pedagogik qarorlarning to'g'rilik mezonlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: o'qituvchining harakatlari asosiy pedagogik maqsadga muvofiqligi, pedagogika fanining talablariga javob berishi, o'quvchilarning munosabati (reaksiyasi), harakatlarning bevosita natijalari hamda o'ziga xoslik (originallik). Ushbu mezonlarga asoslanib, u to'rt turdagi qarorlarni ajratadi:

1. To'g'ri va original qarorlar.

2. To'g'ri, ammo ancha odatiy (kutilgan) qarorlar.
3. Bahsli qarorlar.
4. Noto'g'ri qarorlar.

Uning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, barcha intuitsiya belgilari mavjud bo'lgan qarorlar pedagogik amaliyotda yetarlicha keng tarqalgan. Qizig'i shundaki, to'g'ri qarorlar ko'proq mantiqiy fikrlashga asoslangan holatlarda uchrasa-da, original qarorlar asosan intuitsiyaga asoslangan hollarda kuzatilgan.

To'g'ri va muvaffaqiyatli intuitiv qarorlar qabul qilishda asosiy rolni, eng avvalo, professional tajriba o'ynaydi. Shundan keyin quyidagi omillar keladi: vizual obrazlilik, umumiy madaniy tajriba, tasviriy tasavvur, improvizatsiya qobiliyati, emotsionallik, boy assotsiatsiyalar, xotira va boshqalar. Shu bois, aynan shu sifatlarni rivojlantirish pedagogik intuitsiya darajasini oshirish uchun zarur, deb hisoblanadi.

Pedagogik improvizatsiya darsning barcha bosqichlari va pedagogik faoliyat darajalarida ko'plab pedagogik vazifalarni hal etishda samarali vositadir. Y.P.Sokolnikovning fikricha, "o'z faoliyatingizdagi vazifalarni aniq pedagogik sharoitlarda ko'ra olish, ularning ayni paytda hal etilishi zarur bo'lgan kombinatsiyasini aniqlay olish – tarbiyachi san'atining eng muhim jihatlaridan biridir". V.N.Xarkin pedagogik vazifalarni ikki usulda tasniflaydi 87. 114-b :

- 1) Pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy jihatlariga ko'ra:
 - a) fan mazmunini tashkil etish;
 - b) o'quv faoliyati shakllarini tashkil etish;
- 2) Pedagogik faoliyat bosqichlariga muvofiq:
 - a) analitik xususiyatdagi vazifalar (o'qituvchining yo'naltiruvchi bosqichida);
 - b) loyiha xususiyatidagi vazifalar (pedagogik ta'sir usullari va vositalarini ishlab chiqish);
 - c) kommunikativ xususiyatdagi vazifalar.

Pedagogik improvizatsiya turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu – so'z bilan ifodalanuvchi harakat (o'qituvchining monologi yoki dialogi, o'qituvchining o'ylangan va kulgili izohi, latifa, analogiya va hokazo), jismoniy harakat (to'g'ridan-to'g'ri pedagogik jarayonda kam uchraydi, ammo bu harakat qimirlatish, maxsus qarash, pozitsiya va hokazo bo'lishi mumkin), so'z va jismoniy harakatlarning uyg'unligi (turli hazillar, o'yinlar, mini-spektakllar va boshqalar).

V.A.Xarkin ta'kidlashicha, pedagogik improvizatsiya – bu murakkab jarayon bo'lib, u to'rtta bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – ilhom (insayt). Ushbu bosqichda g'oya, original yechim yoki paradoks fikrning kutilmagan, intuitiv aniqlanishi ro'y beradi. Ko'pincha ilhom noodatiy vaziyat yoki hissiy ko'tarilish fonida yuzaga keladi.

Ikkinchi bosqich – g'oyani intuitiv-mantiqiy anglash va uning ro'yobga chiqarilish yo'lini tanlash.

Uchinchi bosqich – g'oyani ommaviy tarzda ro'yobga chiqarish va intuitiv-mantiqiy tuzatishlar kiritish.

To'rtinchi bosqich – improvizatsiya natijasini darhol intuitiv-mantiqiy tahlil qilish. Improvizatsiyani davom ettirish yoki faoliyatni qayta tuzish qarori qabul qilinadi.

Afsuski, hozirgi ta'lim tizimi nafaqat ilhom manbai bo'lishi mumkin. Hech bir o'qituvchi tushkunlik, ruhiy charchoq, mexanik harakatlardan xoli bo'lishga qodir emas, chunki bunday holatda ijodga e'tibor berish qiyinlashadi. Qog'oz ishlariga chalg'ish, nizoli vaziyatlarga duch kelish, atrof-muhitning agressiv ta'siri, adolatsizlik, noaniqlik yoki har qanday turdagi aniqlikning yo'qligi – bularning barchasi yangi, hali o'zlashtirilmagan narsalar bilan yuzma-yuz kelganda xavotir va tashvishga sabab bo'ladi. Chunki pedagogik jarayonda improvizatsiya

qobiliyatining yo'qligi formalizm, taranglikni keltirib chiqaradi, tarbiya jarayonining majburiyligi, jozibasining pasayishiga olib keladi.

Improvizatsiya – yo'qolgan hayotiy qadriyatlarni tiklash va har bir inson ichida mavjud bo'lgan ijodiy kuchlarni ro'yobga chiqarish uchun ajoyib imkoniyatdir. Zamonaviy ilg'or pedagogik jarayon bunday yondashuvni talab qiladi, u har qanday yangi pedagogik muloqotni noyob va betakror, deb qabul qilishga asoslanadi. Improvizatsiya mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi, ular jamiyat ichida birlashib, har bir a'zoning o'zini mustaqil his qilishi va qabul qilinayotgan qarorlar uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lishiga yordam beradi. Unda o

'qituvchining umumiy madaniyat darajasi va shaxsiy fazilatlari (pedagogik texnika, takt, ijodiy dominantlik, diqqat, tasavvur, izlanish, ilhom, hazil va boshqalar) namoyon bo'ladi.

Pedagogik improvizatsiyani belgilovchi mezonlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ob'yektiv mezonlar.

Tasodifiy – improvizatorning harakati noodatiy yoki standart vaziyatda kutilmagan sharoitga javoban yuzaga kelishi mumkin. Uning ko'rsatkichlari – kutilmaganlik darajasi; kutilmagan vaziyatga javob berish tezligi (to'xtab qolish davomiyligi bilan o'lchanadi); harakatning yangiligi, noodatiyligi va kutilgan javob bilan mos kelmasligi.

Qisqa muddatlik – noodatiy vaziyat yoki shart-sharoit paydo bo'lganda zudlik bilan harakat qilishni anglatadi. Uning ifodalanishi kuchli harakatlanish yoki aksincha, befarqlik bilan ham namoyon bo'lishi mumkin.

Yangilik – oldindan tayyorlanmagan improvizatsiyaning originallik darajasi.

Ommaviylik – improvizatsiyaning o'quvchilar va ishtirokchilarning mavjudligi bilan ifodalanishi.

Pedagogik ahamiyat – improvizatsiya orqali shaxsning tarbiyasi, rivojlanishi va ta'limiga hissa qo'shish. Bu natijalar odatda vaqt o'tishi bilan seziladi.

2. Sub'yektiv mezonlar. Ular improvizatorning o'ziga xos his-tuyg'ulari va javoblari bilan bog'liq. Improvizatsiyani amalga oshirishda subyektiv mezonlar sifatida quyidagilar kuzatiladi:

–
ikr jarayonining namoyishi;

–
uhiy va hissiy ko'tarilish;

–
oniqish hissi.

Bular pantomimika, imo-ishoralar va ko'z harakatlari kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

3. O'quvchilar (qabul qiluvchilar) mezonlari. Bu mezonlar o'quvchi va boshqa improvizatsiya ishtirokchilarining aniq javoblari bilan ifodalanadi. Ularning qabul qilishida quyidagi omillar e'tiborga olinadi:

–
utilmaganlikka nisbatan hayrat;

–
aollik va ishtirok;

–
issiy javob;

–
'tibor konsentratsiyasi;

–
iziqishning birdan oshishi;

–
sda qolish chuqurligi;

–
uhiy holat va kayfiyatning yaxshilanishi.

Ko'rsatkich sifatida qoshlarni ko'tarish, ko'z chaqnashi, bexosdan yuzaga keladigan harakatlar, kulgi yoki hatto jimlik kabi tashqi belgilar, shuningdek, improvizatsiyadan keyin yoki keyinroq o'tkazilgan so'rov natijalari keltirilishi mumkin.

Pedagogik improvizatsiya o'zida o'qituvchining kuzatuvchanligi, tasavvuri, hissiy qiziqishi – ya'ni o'ziga xos ijodiy ilhomni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlar fanni qiziqarli o'qitishda, o'quv ma'lumotlarini yetarlicha egallagan holda va turli kombinatsiyalarda yetkazishda namoyon bo'ladi.

Pedagogik improvizatsiya jarayonining uch asosiy shakli mavjud:

1. An'anaviy improvizatsiya. An'anaviy improvizatsiya to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

a.

nsayt – kutilmagan, intuitiv g'oya paydo bo'lishi.

b.

o'l tanlash – g'oyani amalga oshirish yo'lini aniqlash.

c.

nglash va amalga oshirish – g'oyani real va ochiq ifodalash.

d.

ezkor tahlil – amalga oshirilgan jarayonni darhol tahlil qilish.

2. Oldindan tayyorlangan improvizatsiya. Bu turdagi improvizatsiyada minimal darajada intuitivlik mavjud. Bu holatda o'qituvchi didaktik jihatlarni oldindan tayyorlab, mashq qilgan, o'zining taxminiy harakat shakllarini ko'zda tutadi. Bunday usulni tanlash oddiy ish emas, chunki u o'qituvchining e'tiborini chalg'itishi va noaniqlik tufayli improvizatsiyaning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu xavflardan qochish uchun darsning qaysi qismida, qaysi sharoitlarda, qaysi materialni tushuntirish paytida va qaysi harakatga javoban improvizatsiya ko'proq munosib bo'lishini oldindan rejalashtirish zarur.

3. Aralash improvizatsiya. Bu tur ikki kichik turlarni o'z ichiga oladi: an'anaviy va oldindan tayyorlangan improvizatsiya. Nomlanishidan ham anglash mumkinki, bu holatda ilgari keltirilgan ikki tur bir-biriga aralashib, bir-biridan o'tib turadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, pedagogik improvizatsiyani samarali amalga oshirish o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Pedagogik ijodkorlik quyidagi jihatlari orqali namoyon bo'ladi:

–
malga oshirilgan tajribalarni yangi sharoitlarda samarali qo'llash;

–
avjud bilim va tajribani yangi vazifalarga muvofiq takomillashtirish;

–
lmiy yutuqlarni o'zlashtirish va ularni rivojlantirish;

–
ntuitiv va oldindan tayyorlangan yechimlarni asoslab bera olish;

–
asavvur, yaqin va uzoq istiqbollarni ko'ra olish;

–
'oyani rivojlantirish va uning yechim variantlarini ko'ra olish;

–
'qitish va tarbiya jarayonining ilgari aniqlanmagan qonuniyatlarini aniqlash;

ksperiment va tadqiqot ishlarini olib borish.

O'qituvchi uchun ijodkorlik – o'zini ifoda etish va o'zini tasdiqlash manbai hisoblanadi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun muhim omildir.

Ijodkorlik o'qituvchining shaxsiy sifati bo'lib, quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Moslashuvchanlik – har xil holatlarda tez fikrlash va yechim topa olish.

Tashabbuskorlik – yangi g'oyalar bilan chiqa olish va ularni darsga tatbiq etish.

Empatiya – o'quvchilar ruhiyatini tushunish va unga qarab yondashish.

O'z ustida ishlash – doimiy o'qish, rivojlanish va yangiliklarga ochiqlik.

Zamonaviy ta'limda ijodkorlik texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan. O'qituvchilar yangi metodikalarni, AKT vositalarni, geymifikatsiya (o'yinlashtirish) yondashuvlarini qo'llab, darslarni yanada samarali qilishmoqda. Masalan, oddiy tarix darsini interaktiv viktorinalar bilan bezatish – bu ijodiy yondashuvdir.

Dars davomida kutulmagan savol, texnik nosozlik yoki o'quvchilar kayfiyatidagi o'zgarishlar pedagogni improvizatsiyaga undaydi. Ijodkor o'qituvchi bunday holatlarni imkoniyatga aylantira oladi. Masalan, elektr energiyasi o'chgan bo'lsa, u doska o'rniga guruhli muhokamani tashkil etadi.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchilar aksar holatlarda improvizatsiyaning quyidagi turlaridan keng foydalanishadi:

1.

erbal improvizatsiya – so'z orqali darsni jonlantirish, qiziqarli misollar keltirish.

2.

maliy improvizatsiya – dars rejasi o'zgarishiga moslab topshiriqlarni moslashtirish.

3.

motsional improvizatsiya – o'quvchi holatiga qarab dars tempini o'zgartirish.

Ijodkorlik – bu improvizatsiyaning negizidir. Faqat ijodkor pedagoggina noaniq holatda tez va samarali qaror qabul qila oladi. Masalan, sinfdagi umumiy tushkun kayfiyatni sezgan o'qituvchi kichik hazil yoki o'yin bilan holatni o'zgartiradi. Bu – ijodiy improvizatsiyaning yaqqol ko'rinishidir. O'qituvchining ijodkorligi esa ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatga yangicha yondashuvlar, didaktik yangiliklar, kreativ metod va texnologiyalarni joriy etish orqali namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Berikhanova L. Yu. Podgotovka studentov — budumix uchiteley k improvizatsionnoy deyatelnosti. — Tyumen', 1988.- 125 s.
2. Verbitskiy A.A. Aktivnoe obuchenie v v'ysshhey shkole: kontekstnyy podxod. -M.: V'yssh. shk. 1991. - 204 s.
3. Slastenin V.A. i dr. Pedagogika: Ucheb. posobie dlya stud. v'yssh. ped. ucheb. zavedeniy / V. A. Slastenin, I. F. Isaev, Ye. N. Shiyanov; Pod red. V.A. Slastenina. - M.: Izdatel'skiy sentr "Akademiya", 2002. - 576 s.
4. Харькин V. N. Pedagogicheskaya improvizatsiya: teoriya i metodika / V. N. Харькин. - M.,1992. - 157s